

BENAZIR MUHAMMAD - BENAZIR SHOIR

Zaynab Omonova

Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18304161>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek adabiyotining yosh, yirik vakili bo'lmish Benazir Muhammad ijodiga chizgilar, uning ijodini o'rganishda falsafiy-ilmiy tahlilning ahamiyati va she'rlaridagi adabiy yuk, yuksak dard motivlari, ohanglari haqida tadqiqotchining qisqacha fikrlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ijod, rindona, vatan, ilohiy kuch, balog'at, qalb prizmasi, millat, an'anaviy, Turkiston, yurtqayun, noranjiy.

Ijod - doim muqaddas bo'lib kelgan. Ammo har bir ijod ham chin adabiyot bo'lolmaydi.

Ammo ba'zi haqiqiy ijod ahlilari bor-ki, ular ba'zan xalq tomonidan, millat tomonidan biroz kechroq, biroz hayallabroq taniladi, o'qiladi.

Benazir Muhammad ana shunday keskir so'ziga, o'tkir qalamiga ega bo'lgan shoir bo'lib, xos o'quvchilarning bir qismiga avji ijod mahalida, ya'ni tiriklik chog'larida tanilgan bo'lsa, bir qismiga vafotidan so'ng va qolgan katta guruh "olomonga" esa hali -hali notanish, hali -hali begona.

Shoirning mag'zi to'q, falsafiy mazmun mohiyatga boy she'rlarining barchasi pok ishq bilan, o'tli muhabbat bilan yo'g'rilgan. Ularda goh rindona holatlar, goh kamtarin oshiqlik, goh el sevgisiga kamarbasta farzand qayg'usi, goh insoniyatga xos bo'lgan samimiylik, dilkashlik balqib turadi. Bir so'z bilan aytganda, shoir lirikasi beqiyos, ko'p tarmoqli. U garchi juda kam umr kechirgan bo'lsa ham, o'zidan sog'lom, tirik so'zlar va hech kimnikiga o'xshamagan, hali yurilmagan izlar qoldirdi.

She'rni anglash ham bir hikmat deganlaridek, shoir so'zlarining ilohiy kuchini, undagi mohiyatni, g'oyani anglash ham o'quvchidan katta ilmni, balog'atni talab qiladi. "Chin shoir ko'rgan bilganlarini, kezgan yurt manzaralarini yurakka jo aylab, qalb prizmasidan o'tkazibgina qog'ozga to'kadi. Ana o'sha kechinma she'rga yo'g'rilib, jahon aro kezadi. Haqiqiy she'r sarhad bilmaydi".

Vatan haqida bir yangi so'z ayta olish, unga muhabbatni beg'araz ifodalash, yalang'och ifodalardan, madhiyabozlikdan xoli go'zal izhor bita olish nafaqat o'zbek adabiyotida, balki dunyo adabiyotida ham juda noyob hodisalardan biri deya olamiz. Zarif Sultoniy ijodida vatan, milliyat tushunchalari juda sof, nafosatli ifoda vositalari orqali bayon qilinadi.

Jumladan, Turkiston yodi, qayg'usi to'g'risida bitilgan "Qonli bog' marsiyasi" bu o'rinda diqqatga sazovordir. Shoir she'rda boshqa an'anaviy she'rlardan farqli o'laroq qavs tinish belgisi orqali kimga murojaat etayotganini ochiq lashtiradi. (Yashil bog'ni payhon qilgan qora quyunga) deya so'zni boshlaydi va Cho'lponning "Go'zal Turkiston, senga ne bo'ldi?" degan mazmundagi she'ridan parchasini epigraf sifatida keltirib o'quvchi e'tiborini tortadi.

So'ngra xalq dostonlaridan biridagi "Gul ketar bo'lsa, guliston emranar" gapini ham ilova qiladi. Shoir yashil bog' deya ta'riflayotgan, kezi kelsa e'zozlayotgan maskan Turkistonimiz bo'lsa, qora qayun millatparvar shoir Cho'lpon she'rlarida xalqni ayovsiz yanchgan, toptagan boshiga og'riqli, iztirobli kunlarni solib, uni erkidan, hurligidan judo qilgani yetmagandek, ma'naviyatdan, ma'rifatdan yiroqlashtirishga bel bog'lagan yovlar emasmi.

Benazir Muhammad chechlari dilni yashnatadigan chog'da bog'ni ezib, bosib so'ldirganlar, nafaqat g'unchalarni qamchilagan, balki ko'ngillarni yanchgan va so'ngida

yaralarini kuydirib, qon qaqshatib o'ldirgan qora quyundan nafrat etar ekan, unga o'lim ham tilaydi. Bundan tashqari, shoir ijodida vatandan yiroqda uni qo'msash ,sog'inib sog'inchdan orziqish, shoirona til bilan aytganda emranish hollari bisyor uchraydi. Shoir she'rlarining so'ngida xuddi Abdulla Orif kabi she'r bitilgan vaqt va joy nomi qistirib ketilgan bo'lib, ularning deyarli ko'pchiligi yurtdan ,vatandoshlaridan uzoqda ijod etilgani oydinlashadi. Shoirning "Men bewatan qoldim vatan ichinda", "Tanim kuzda -ruhim bahorda qoldi", "Samo yanglig' ochiq ko'ksimda ,larzasi yashaydir tuproqning", yoki

"Seni hech qachon topmagan edim

Illo yo'qotib keldim bir umr

Ey quyosh ko'zli

Noranjy vatan" singari misralarida hur ,quyosh ko'zli ,ro'yo yanglig' vatan suvrati yal-yal tovlanib ko'rinadi. Misradan misraga ko'chib yashaydi. Yana bir (Tugamagan qo'shiq) sarlavhali she'rida esa yurti "dunyoga keltirgan onam, gizli(yashirin)g'amim, nay kabi kuylatgan mavjudam, mahzunam ,munisam, ulfatim, mizrobim deya atab alqaydi, dardlanadi. Bundan tashqari ,shoirning oshiqona ,rindona ,ishq mavzusi kuylangan bir qator she'rlari ham bor-ki, qalbni olis va ko'hna hislarga, javobi yo'q zo'r savollarga burkab tashlaydi.

"Ishqingni ka'basi hayotim o'rni

Hajringning qiblisi o'limim",

"Kechdim Laylo yo'lini

Vosili Mavlo qil meni "kabi bir-biridan latif, shoir ishqining iqrori, manzumasi o'laroq yaralgan quyma satrlar bir qator topiladi.

Benazir Muhammad ijodi haqiqatdan ham benazir, o'qishli, nihoyasiz ehtirolarga boy, tag zahirida katta ilm, hikmat yashirin, badiiy jihatdan barkamol ijoddir.

Bu inja ijod o'quvchilaridan muruvvat emas, balki mehr, sadoqat va har bir bo'g'inlari va harflarigacha so'ngsiz muhabbat kutadi xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursun Ali. Sarhad bilmas she'riyat. Jahon adabiyoti jurnali. 2023. 186-189-b.